

SHASHMAQOM CHOLG'U QISMLARINING IJROCHILIGI

Karimova Mahfuza Vaxabovna

Yunus Rajabiy nomli O'zbek milliy musiqa san'ati instituti Maqom xonandaligi kafedrası
professor v.b.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15062222>

Annotatsiya. Mazkur maqolada maqom cholg'u qismlarining ijrochiligi haqida so'z boradi. Shuningdek, maqola davomida maqom tarixi, badiiy ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tilgan va Shashmaqom cholg'u ijrochiligi mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maqom cholg'u qismlarining ijrochiligi, maqom tarixi, Shashmaqom, milliy qadriyatlar.

PERFORMANCE OF SHASHMAQOM INSTRUMENT PARTS

Annotation. This article discusses the performance of maqom instrument parts. Also, the article specifically touches on the history and artistic significance of maqom, and highlights the essence of Shashmaqom instrument performance.

Keywords: performance of maqom instrument parts, maqom history, Shashmaqom, national values.

ИСПОЛНЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ШАШМАКОМА

Аннотация. В данной статье рассматривается исполнение инструментальных партий макома. В статье также уделяется внимание истории и художественному значению макома, а также подчеркивается суть игры на инструменте шахмаком.

Ключевые слова: исполнение инструментальных партий макома, история макома, Шахмаком, национальные ценности.

Kirish

Har bir xalq va millatning o'z tarixi, milliy qadriyatlari hamda an'analari qatorida mumtoz musiqiy me'rosi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, o'zbek xalqining musiqa merosi ham o'ziga xos, serqirra, sermazmun va nihoyatda rang-barangdir. Xalqimizning ko'hna va boy musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, bunda maqom turkumi milliy musiqa merosimizning chinakam gultojidir.

Maqomlar Sharq xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan musiqa janridir. Ular bu xalqlarning o'ziga xos musiqa boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan.

Maqomlar Sharq xalqlari musiqasining asosini tashkil etadi. Shu sababli maqomlarni atroflicha o'rganilishi musiqa madaniyatimiz tarixida muhim ahamiyatga ega.

Maqomlarning nazariy ham amaliy tomonlari bor. Ularning nazariy jihatlarini Sharq musiqasiga bag'ishlangan risolalarda o'z ifodasini topgan. O'zbek-tojik xalqlaridagi maqomlarning amaliy tomonlari esa, ustoz sozanda va xonandadan shogirdga og'zaki tarzda o'tib, bizgacha yetib kelgan maqomlar turkumidagi birdan-bir janr – Shashmaqom ko'rinishini tasavvur etish mumkin.

Shashmaqom ikki yuz ellikka yaqin kuy va ashulalardan iborat hamda o'zbek-tojik xalqlari musiqa merosining salmoqli qismini tashkil etadi. Maqomlar, shu jumladan, Shashmaqom masalasi musiqa madaniyatimiz tarixida juda kam o'rganilgan sohalaridandir. Shashmaqom O'rta Osiyoda yashab kelgan maqom turkumlarining eng so'nngi shaklidir va bundan taxminan ikki asr ilgari (XVIII a.) shakllangan.¹

Shashmaqom cholg'u yo'llari xalq musiqasidagi kabi rang-barangligi, jozibadorligi va boy mazmunga ega bo'lganligi ularning qiymatini yanada oshiradi. Maqomlarning cholg'u yo'llari tinglab ko'rilsa, ular ham mungli, ham muloyim, ham orombaxsh, ham kishiga shijoat baxsh etuvchi kuylardan iborat ekani aniq seziladi.²

“Shashmaqom cholg'u ashula bo'limidagi kuy va ashula yo'llarining eshituvchilarga to'g'ri yetib borishi ularga zavq va lazzat bag'ishlay olishi ularni boshqa muzika asarlari kabi yaxshi ijro etilishiga bog'liq”³.

“Maqom ijrochiligida qochirim va nolish qilish vositalaridan foydalana olish masalasiga ham alohida ahamiyat bermoq lozim. Bu siz maqom yo'llarining badiiy-estetik ta'sir kuchi sezilmay qoladi”⁴.

Maqomlarning ijrochiligi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, maqomlarning ijro etilishida musiqa cholg'ularidan tanbur va doyra yetakchi sozlardan hisoblangan. Professor Fitrat domlanning aytishicha, maqomlar ijrosida: ikkita tanbur, bitta dutor, bitta qo'biz yoki sato, bitta doyra va ikkita-uchta hamnafaslik hofizlar jo'r bo'ladi. Tanbur uch torli (setor) va to'rt torli (chortor) bo'lgan. Uch torli tanbur, ayniqsa, Xorazmda keng qo'llangan. O'n ikki maqomning ijro etilishida XV asrgacha ud qanday o'rin tutgan bo'lsa, Shashmaqomda ham tanbur shunday ahamiyatga ega bo'lgan.⁵

Yunus Rajabiy rahbarligida respublika radiosi huzurida 1927-yilda o'zbek xalq cholg'ulari ansambli tashkil etildi. Bu jamoa ijrosida Shashmaqom turkumidagi asarlar bilan bir qatorda Farg'ona—Toshkent maqom yo'llari va ularning cholg'u qismlari, jumladan “Buzruk”, “Navo”, “Segoh”, “Surnay Irog'i” kabi cholg'u kuylari magnit tasmasi hamda grammofon

¹ И. Ражабов. Мақомлар. Тошкент, 2006-йил, 11-12-бетлар.

² И. Ражабов. Мақомлар. Тошкент, 2006-йил, 181-бет.

³ И.Ражабов, “Мақомлар масаласига доир” Тошкент, 1963-йил 268-бет.

⁴ Шашмаком VI жилд. Ёзиб олувчи Ю.Ражабий Тошкент, 1975-йил 187-бет.

⁵ И. Ражабов. Мақомлар. Тошкент, 2006-йил, 151-бет.

plastinkalarga yozib olingan. Bu cholg'u kuylaridan, ayniqsa, "Segoh" - orkestr jo'rligida o'ziga xos qiyofada eshituvchiga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi.

O'zbekiston xalq artisti, taniqli sozanda va yetuk san'atkor Turg'un Alimatov ham maqom ijrochiligida o'z ijro maktabini yaratgan. T. Alimatov ijrosida Farg'ona—Toshkent maqom yo'llariga mansub bo'lgan "Buzruk", "Segoh", "Navro'zi Ajam" kabi asarlar o'zgacha ijro talqinida gavdalanadi.

F. Sodiqov rahbarlik qilgan Toshkent davlat konservatoriyasining talabalar ansambli ijrosida Farg'ona—Toshkent mumtoz cholg'u yo'llaridan Nasrullovi kuyi Toshkent grammofon yozuv studiyasida magnit tasmaga yozib olindi.⁶

Keyinchalik 1985-1980-yillarda Abdurahim Hamidov rahbarligidagi talabalar ansambli ijrosida Shashmaqom cholg'u qismlaridan tashqari yana 6 ta Mushkiloti Dugoh, Talqinchai Mushkiloti Dugoh, Ufari Mushkiloti Dugoh, Samarqand Ushshog'i, Cho'li Iroq va Surnay Irog'i kuylari magnit tasmalarga tushirildi. Ushbu audio yozuvlar "Shashmaqom cholg'u yo'llari" turkumi sifatida katta grammofon lappaklaridan iborat albom shaklida ko'paytirilib sotuvga chiqarildi.⁷

1990-yillarda Xorazm teleradiosi qoshida tuzilgan Ro'zmat Jumanioyov rahbarlik qilgan maqom ansamblida Xorazm maqomlarining aytim yo'llari bilan bir qatorda, cholg'u qismlarining ham ba'zilar yozib olingan. Bunga Saqili Navo kuyini misol qilib keltirishimiz mumkin. Lekin, hozirgi kungacha Xorazm maqomlarining cholg'u qismlari to'liq holda yozib olinmagani achinarli holat, albatta. Bu esa Xorazm maqomlarini targ'ib qilishda, cholg'u qismlarini o'r ganishda bir muncha qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

Shashmaqom cholg'u ijrochiligi haqida gapirar ekanmiz, bunda bevosita Shashmaqom turkumining cholg'u, ya'ni Mushkilot bo'limining tarkibiy qismlari nazarda tutiladi. Shashmaqom cholg'u qismlarining ijrochiligi bo'yicha qilingan ishlar, avvalo, Toshkent davlat konservatoriyasida 1972-yilda Sharq musiqasi kafedrasining ochilishi bilan uzviy bog'liq. Bu kafedra san'atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzulla Karomatov tashabbusi bilan tashkil etilgan. Vaqt o'tishi bilan Sharq musiqasi kafedrasini sertarmoq, mohiyatan fakultetlararo bo'linmaga aylandi. San'atshunoslik fanlari doktori Ishoq Rajabov, cholg'u ijrochiligi bo'yicha Yunus Rajabiyning maslahati va tavsiyasiga ko'ra O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, sozanda va bastakor Faxriddin Sodiqov, tanburdan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Rizqi Rajabiylar ishini boshlab yubordilar.⁸

⁶ P.Юнусов, Фахриддин Содиқов. Тошкент, 2005-йил 183-bet.

⁷ "Jannatmakon" jurnali. 2013-yil mart soni, 34-bet.

⁸ P.Юнусов, Фахриддин Содиқов. Тошкент, 2005-йил 180-181-betlar.

Maqom ijrochiligi bo'yicha akademik Yunus Rajabiyning izdoshi va yaqin safdoshi, atoqli ustoz-murabbiy Faxriddin Sodiqov talabalar cholg'u ansambli fanini o'z zimmasiga olar ekan, o'quv vazifalari o'rnida ayrim mezonlari avvallari sinovdan o'tkazilgan yangi ijodiy maqsadlarni ko'zlaydi.⁹

F.Sodiqov rahbarlik qilgan talabalar maqom ansambli dastlabki, ya'ni 1972-1973-o'quv yilida quvonarli natijalarga erishganini alohida e'tirof etmay bo'lmaydi. Maqom ansambli sinfi bo'yicha yozgi imtihon sinovi mazmunan ajoyib konsertga aylanib ketgani rost. Namoyish etilgan o'quv-ijro dasturi an'anaviy musiqamizni ijroviy o'zlashtirish darajasining sinovi shaklida hozirgi zamon maqom cholg'u ijrochiligi sohasida chinakam katta ijodiy yutuq qo'lga kiritilgani ko'pchilikka ayon bo'ldi.

Ustoz atigi bir o'quv yili mobaynida shogirglarining kasbiy ulg'ayishini sezdi, cholg'u jo'rnavozligi mezonlarini har bir ishtirokchi ozmi-ko'pmi anglab yetganidan mamnun bo'ldi. Tez orada uning say'i-harakatlari bilan yoshlar ansambli ijrosidagi Shashmaqom turkumidan Tasnifi Buzruk, Tarjei Buzruk, Garduni Buzruk, Muxammasi Nasrullovi qismlari Toshkent grammofon yozuv studiyasida magnit tasmaga yozib olindi va Д—035327/28 belgisi ostida alohida katta lappak tarzida ko'paytirilib, erkin sotuvga chiqarildi.¹⁰



Sharq musiqasi kafedrasi o'qituvchi va talabalari. 1974-yil

⁹ Шашмақом сабоқлари (мақола ва маърузаларнинг иккинчи тўплами). 2007-йил 46-bet.

¹⁰ Р.Юнусов, Фахриддин Содиков. Тошкент, 2005-йил 182-183-betlar.

«Mono» sifatli audio yozuvda chiqarilgan grammofon lappaklar endilikda ma'lum ma'noda tarixiy yodgorlik. Biroq, qat'iy ishonch bilan aytsa bo'ladiki, unda bitilgan ayrim asarlarning ijrosi barkamollik oily mezonlari bo'yicha ham tanhodir. Bulardan yolg'iz "Tarjei Buzruk" u paytlarda tanqis bo'lgan stereo vositasida qayta yozib olingan bo'lib, Olmatida o'tkazilgan "Osiyo mamlakatlari III xalqaro musiqa minbari" tadbirida tanlangan asarlar qatoriga kiritilishi natijasida shu nomli albom /OCT 5289-73 //C30 07496/ lappagiga ko'chirilib shinaandalarga tortiq qilindi.¹¹

Darhaqiqat, Toshkent grammofon yozuvi studiyasida ikkala texnikaviy sifat—«mono» va «stereo» yozuvi yordamida hujjatlashtirilgan lappak-disk qilib, «Shashmaqom cholg'u yo'llari» nomida berilgan Tarjei Buzruk hozirgi kunga qadar barcha talaba va sozandalar uchun ixtisoslik bo'yicha dasturulamal vazifasini bajarib kelayotir. U hamon respublikamiz radiosi orqali bot-bot yangrab turadi, bundan esa ko'p sonli tinglovchilarimiz bahramand bo'lishi mumkin.¹²

Vaqt soati kelib bu an'analarni Faxriddin Sodiqovning ishongan shogirdi, ustozona dutor ijrochiligi maktabining taniqli vakili Abdurahim Hamidov davom ettiradi. Uning boshchiligida 1985—1990-yillarda birin-ketin bitilgan grammafyon yozuvlar alohida qimmatga ega bo'ldi. Zero, olti yil davomida jami 52 ta cholg'u maqom asarlari yoddan ijro etilib, Toshkent ovoz yozish studiyasida magnit tasmalariga tushirildi. Bulardan 46 tasi bevosita Shashmaqom Mushkilotlarini to'liq tashkil etgan holda yana 6 tasi quyidagilar; Mushkiloti Dugoh, Talqinchai Mushkiloti Dugoh, Ufari Mushkiloti Dugoh, Samarqand Ushshog'i, Cho'li Iroq va Surnay Irog'i.

Ushbu audio yozuvlar "Shashmaqom cholg'u yo'llari" turkumi sifatida jami 11 dona katta grammofon lappaklaridan iborat beshta alohida albom shaklida ko'paytirilib sotuvga chiqarildi. Bular «Melodiya» firmasi tamg'asi ostida ko'paytirildi:

- "Shashmaqom cholg'u yo'llari. Navo va Dugoh maqomlari". 1984-yil yozuvlari, 1986-yil nashri, 2 lappak, adadi 2000 dona;
- "Shashmaqom cholg'u yo'llari. Dugoh va Segoh maqomlari". 1988-yil yozuvlari va nashri, 3 lappak, adadi 1500 dona;
- "Shashmaqom cholg'u yo'llari. Buzruk va Rost maqomlari". 1988-yil yozuvlari, 1989-yil nashri, 2 lappak, adadi 1500 dona;
- "Shashmaqom cholg'u yo'llari. Rost va Iroq maqomlari". 1989-yil yozuvlari va nashri, 2 lappak, adadi 3100 dona;
- "Shashmaqom cholg'u yo'llari. Iroq maqomi". 1990-yil yozuvlari va nashri, 2 lappak, adadi 2000 dona.

¹¹ Шашмақом сабоқлари (мақола ва маърузаларнинг иккинчи тўплами). 2007-йил 47-bet.

¹² Р.Юнусов, Фахриддин Содиков. Тошкент, 2005-йил 186-bet.

Tezkorlik bilan amalga oshirilgan ushbu loyihaning ilmiy va amaliy ahamiyati hanuz saqlanib kelmoqda. Zero, yaxlit yondashuv bilan, namunali andozada, ta'bir joiz bo'lsa, "akademik" uslubda Shashmaqom cholg'u yo'llari o'sha vaqtgacha to'liq holda ijro etilmagan edi. Cholg'u qismlarining talayginasi jo'rnavezlikda ishlatilmasligi, ayrimlarining esa faqat nota matnlari borligi mutasaddi rahbar ishini ancha mushkillashtirdi.¹³



Abdurahim Hamidov

Darvoqe, shu kunga qadar bu asarlar yaxlit hamda bir xil ijroviy uslubda talqin etilgan yagona yondashuvning akademik ko'rinishi sanalanadi. Zotan, bir muddat to'xtab qolgan ibratomuz ijodiy ishni ustoz martabasiga erishgan Abdurahim Hamidov shunchaki davom ettirmadi. U maqom cholg'u qismlarini akademik Yunus Rajabiy yozib olgan nota to'plamlari bo'yicha birma-bir o'qib, tahlil qilib ijroviy vositalarini topishga muvaffaq bo'ldi. Kuy-oanglarga yangicha sayqal berdi. Asarlarning badiiy-ijodiy hamda texnikaviy sifati barkamol bo'lishida mohir ovoz rejissori, marhum Anvar Tojiyevning ham hissasi katta bo'di. Mazkur ijrolarning ilmiy, amaliy, ijodiy, ma'rifiy ahamiyati hanuz kamaygani yo'q.¹⁴

¹³ Шашмақом сабоқлари (мақола ва маърузаларнинг иккинчи тўплами). 2007-йил 47-48-betlar.

¹⁴ "Jannatmakon" jurnali. 2013-yil mart soni, 34-bet.

Xulosa

Shashmaqom cholg'u qismlarining ijrochiligi borasida qilingan ishlar maqom ijrochiligida o'ziga xos ilmiy-tarixiy ahamiyatga egadir. Shashmaqom cholg'u qismlarining ilk marta to'liq holda yozib olinishi bu yuksak kasbiy jasorat deb aytsak, hech mubolag'a bo'lmas, nazarimizda. Ansanbl ijrosida yozilgan asarlar niyohatda betakror musiqiy did, yuksak ijodiy barkamollikka egadir. Bu ijro talqinlari maqom cholg'u qismlarini o'rganayotgan talabalar uchun muhim ijro manbasi, shinavandalar uchun esa yetuk ijro namunalari sifatida xizmat qilib kelayotir. Shashmaqom cholg'u qismlarining yangi ijro talqinlarini yaratishda bu ijro uslubi muhim tayanch manbadir.

REFERENCES

1. В.Успенский, Шесть музыкальных поем. Москва-Бухара, 1924-год .
2. Ўзбек халқ музыкаси VI жилд, ёзиб олувчи М.Юсупов. Тошкент, 1958-йил.
3. Ўзбек халқ музыкаси V жилд, ёзиб олувчи Ю.Ражабий “Тошкент, 1959-йил.
4. И.Ражабов, Мақомлар масаласига доир. Тошкент, 1963-йил.
5. Шашмақом I-VI жилд, ёзиб олувчи Ю.Ражабий “Тошкент, 1966-1975-йиллар.
6. Ю.Ражабий, Муסיқа меросимизга бир назар. Тошкент, 1978-йил.
7. Хоразм мақомлари I-III жилд, ёзиб олувчи М.Юсупов. Тошкент, 1980-1986-йиллар.
8. А.Фитрат, Ўзбек классик муסיқаси ва унинг тарихи. Тошкент, 1993-йил.
9. И.Ражабов, Мақом асослари. Тошкент, 1994-йил.
10. Р.Юнусов. Ўзбек халқ муסיқа ижодиёти (II-қисм). Тошкент, 2000-йил.